

## MALINANING DORIVORLIK XUSUSIYATI

**Ikromova Yulduzoy Erkin qizi – o`qituvchi**

**Valiyeva Dilfuza Salim qizi – talaba**

*JDPU, Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasida*

**Annotatsiya:** Yer yuzi o`simlik dunyosiga boy. Bu o`simliklar ichida zaharli, dorivor va boshqa ko`pgina xususiyatga ega o`simlik turlari uchirab turadi. O`zbekistonda ham 4500 dan ortiq yuksak o`simlik turlari mavjud bo`lib, ularning ichida dorivor o`simliklar ko`plab uchraydi. Dorivor o`simliklar xalq tabobati va tibbiyotda keng qo`llaniladi.

**Kalit so`zlar:** Toq, patsimon, rezavor, vitamin, karotin, tikan, ho`l, meva, ro`vak, tabiiy, dori, darmon, oziq, malina, o`simlik.

Insoniyat qadimdan tabiiy holdagi dorivor o`simliklardan foydalanib kelgan. Insoniyat tabiatdan, o`simliklardan turli turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida, ya`ni dori – darmon, oziq – ovqat, xom ashyo va yem – xashak sifatida foydalanib kelgan. O`simliklar tabiiy holda havoni kislarod bilan boyitish va oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini amalga oshiradi. **Malina** (*Rubus idaeus*) - ra`noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub chala buta. Ildizi ko`p yillik, poyasi ikki yillik. Birinchi yilgi novdalari yashil, yog`ochlanmagan, mayda tikanli bo`lib, meva hosil qilmaydi. Bu poya qishga borib yog`ochlanadi, tikanlari ham yo`qoladi va kelasi yili iyun - iyul oylarida gullaydi. Mevasi pishgandan so`ng eski poyasi qurib qoladi. Ildizpoyadan har yili yangi poyalar o`sib chiqadi. Barglari toq patli murakkab, 5-7 ta bargchadan tashkil topgan bo`lib, poyada uzun bandi bilan ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismidagi barglari ko`pincha uch plastinkali bo`ladi. Bargchasi tuxumsimon, yuqori tomoni taksiz, pastki tomoni esa tukli. Qo`shimcha barglari ipsimon shaklga ega. Toshloqlarda, o`rmonlarda, butalarda, daryo qirg`oqlarida o`sadi. Ko`pincha bog`larda o`stiriladi<sup>2</sup>.

Malina dorivor va rezavor mevali buta sifatida ko`p miqdorda o`stiriladi (1-rasm). Mevasi tibbiyotda ishlatiladi, uni to`liq pishgan vaqtida qo`lda ehtiyotlik bilan terib olinadi, quyoshda so`litib, so`ngra quruq va issiq joyda yoki quritgichlarda quritiladi yoki murabbo qilib qo`yish mumkin. Mevasi ko`pincha quritmasdan ham ishlatiladi. Ho`l mevasidan sharbat va meva shirasi tayyorlanadi.<sup>2</sup> Meva tarkibida 5,7-12% qand, penton, organik kislotalar, C, B vitamini va boshqalar bor. Quritilgan mevasi (damlama) terlatuvchi dori sifatida, sharbati suyuq dori ta`mini yaxshilashda ishlatiladi.



**1-rasm. Malina**

<sup>2</sup>[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BE%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F\\_%D0%B8%D0%BB%D0%BB%D1%8E%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BE%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%B8%D0%BB%D0%BB%D1%8E%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F)

Mevalarda 11% gacha shakar (glyukoza, fruktoza, pentoz), efir moyi izlari, pektin va oqsil moddalari, C, A, B vitaminlari; 1-2% organik kislotalar (molik, limon, tartarik, salitsil va boshqalar), spirtlar (tartarik, izoamil), ketonlar (asetoin, diatsetil, b-ionon), antosiyenin siyanin, katexinlar (d-katexin, l-epigallokatexin), 0,3% gacha taninlar, urug'ida esa 22% gacha yog' mavjud<sup>3</sup>.

Mevasi, asosan, yangiligida yeyiladi, konserva sanoatida qiyom, jem, sharbatlar tayyorlanadi. Quritilgan mevasi (damlamasi) tibbiyotda terlatuvchi dori sifatida, sharbati suyuq dorilar ta'mini yaxshilashda ishlatiladi. Uy sharoitida choy damlab ichish yoki konserva bankalari tayyorlashda ishlatiladi. Yangi terilgan va quritilgan meva damlamasi xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ovqat hazmini yaxshilovchi, terlatuvchi, o'pka va nafas yo'llari shamollaganda balg'am ko'chiruvchi, isitma ko'tarilganda haroratni pasaytiruvchi hamda me'da, ichak kasalliklariga dori sifatida qo'llaniladi. Malina bargidan tayyorlangan damlama va qaynatma ich ketishni davolash, yo'tal va anginada tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

Malina O'zbekistonda ildiz bachkisidan ko'paytiriladi. Ko'chatlari kuzda yoki erta bahorda qator oralarini 150 sm, qatordagi tup orasini 50-75 sm qilib o'tkaziladi. Yoz davomida 5 marta qator oralari yumshatiladi. 15-18 marta sug'oriladi. 1 ga malinazordan 10 tonna hosil olinadi. Mavsum davomida gektariga 80 kg azot, 80 kg fosfor va 50 kg kaliy o'g'iti beriladi. Malina ekiladigan maydonga yer haydash oldidan 20-30 go'ng beriladi. Osiyo, Amerika va Yivripaning mo'tadil va subtropik zonalarida tarqalgan.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaymonov I.J. NamDU —Biotexnologiya|| kafedrası dotsenti Ergashev D.T. NamDU —Biotexnologiya|| kafedrası o'qituvchisi Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar Namangan-2020 S.97
2. E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari "Sano – standart" nashriyoti – Toshkent – 2016 – 63 b.
3. O'. Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, S. Azimboyev. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar Toshkent-2020 – 101 b.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Malina>

<sup>3</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%BD%D0%B0#:~:text=%D0%9F%D0%BB%D0%BE%D0%B4%D1%8B%20%D1%81%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D1%80%D0%B6%D0%B0%D1%82%20%D0%B4%D0%BE%2011,%D0%BC%D0%B0%D1%81%D0%BB%D0%B0%5B5%5D>.